



**DAVLAT SEKTORI SUB`EKTLARI MOLIYALASHTIRISH  
MANBALARI BO`YICHA  
DAROMADLARNING TURLARI.**

**Igamberdiyev Sahobiddin Xatam o`g`li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu tezisda davlat sektori sub`ektlarida daromadlarning turlari, ularni tan olish va ular hisobini yuritishning tizimlari o`rganilgan. Davlat sektori sub`ektlarida daromadlarni tan olish va ularni hisobga olishning aniq va shaffof tizimi iqtisodiy barqarorlik va samaradorlikni ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon miqyosida olib borilayotgan hisob yuritish tajribasiga ko`ra, turli davlatlar daromadlarni boshqarish va hisobga olishda o`ziga xos yondashuvlarga tayanib ish olib boradi.*

**Kalit so`zlar:** *budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari, davlat budjeti mablag`lari, davlat sektori sub`ektlari jamg`armalar, moliyalashtirish, mulk shakllaridan.*


**Kirish:** O`zbekistonda davlat budjeti mablag`larining ellik foizidan ko`proq qismi davlat sektori sub`ektlari ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta`minlash va taraqqiyotni rag`batlantirishga yo`naltirilishi barchamizga ma`lum. Ushbu budjetlar sog`liqni saqlash, ta`lim, infratuzilma va ijtimoiy ta`minotni o`z ichiga olgan asosiy tarmoqlarni moliyalashtirishda muhim rol o`ynaydi, shu bilan birga davlat sektori sub`ektlari tarkibidagi budjet tashkilotlarining asosiy xarajatlarini moliyalashtirish masalalarini hal qiladi. Ushbu ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mablag`larni yig`ish, taqsimlash va ishlatishni o`z ichiga olgan daromadlarni samarali boshqarish muhim ahamiyatga ega. Davlat budjeti daromadlarining ijrosi hisobini amalga oshirishda nazariy asoslar davlat moliyasining barqarorligini ta`minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda Jahon iqtisodiyotida har qanday davlat sektori sub`ektlarining jamg`armalari ya`ni budjetdan tashqari jamg`armalari shu davlat iqtisodiyoti eng muhim institutlardan biri hisoblanadi.

Davlatimiz siyosiy tuzilmasiga asosan unitar davlat hisoblanadi. Unda yagona Konstitutsiya amal qiladi va hamma uchun bir xil qonunlar mavjud. Mamlakatimiz budjet tizimi tashkil topishining huquqiy asoslarini O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda davlatimizning Budjet kodeksi tashkil etadi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimotiga binoan O`zbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish, unga o`zgartirish va qo`shimchalar kiritish, soliqlar va boshqa majburiy to`lovlarni joriy qilish, O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari hisoblanadi. O`zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-tamoillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida



amalga oshiriladi. Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilanadi.

Davlat sektori – mulk shakllaridan biri bo'lib, uning subyekti (egasi) davlat hisoblanadi. Yer, tabiiy resurslar, asosiy ishlab chiqarish vositalari, bino va inshootlar, moddiy resurslar, moliyaviy resurslar, qimmatbaho buyumlar, axborotlar, madaniy va ma'naviy boyliklar davlat mulki obyektlari hisoblanadi. Bu boyliklardan foydalanish to'liq davlat ixtiyorida bo'ladi. U davlat mulklaridan kerak bo'lgan yo'nalishda foydalanishni taminlaydi. Davlat sektori sub'ektlaridan biri bu budjet tashkilotlaridir. Davlat funksiyalarini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda davlat hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra tashkil etilgan, Davlat budjeti mablag'lari hisobidan saqlab turiladigan notijorat tashkilot budjet tashkilotidir<sup>29</sup>. Budjet tashkilotlarining moliyalashtirish manbalari bo'yicha daromad turlarini tahlil etadigan bo'lsak, quyidagi asosiy yo'nalishlardan tashkil topadi (1-rasm).



### 1-rasm. Budjet tashkilotlarining moliyaviy manbalari.

O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayorgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan budjet tashkilotlari daromadlari ijrosining huquqiy asoslari mustahkam tizimga ega bo'lib, ular tashkilot iqtisodiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Budjet kodeksi va unga mos ravishda ishlab chiqilgan boshqa qonunchilik hujjatlari tashkilot daromadlarini qonuniy va samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan huquqiy kafolatlarni yaratadi. Shu bilan birga, davlat budjetidan moliyalashtirish mablag'laridan tejab, samarali va aniq foydalanish hamda budjet va smeta-shtat intizomini mustahkamlash uchun budjet tashkilotlari rahbarlarining mustaqilligini kengaytirish va mas'uliyatini oshirish nazorat va ochiqlik prinsiplariga amal qilish ijro jarayonida shaffoflikni ta'minlashga yordam beradi.

<sup>29</sup> O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. 26-dekabr 2013-yil. O'RQ-360-son.



## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Har bir davlat sektori sub`ektlari moliya yilining boshlanishiga qadar davlat budjeti mablag`lari hisobidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan xarajatlar smetasini to`rt guruh asosida tuzib tasdiqlaydilar hamda ushbu tasdiqlangan xarajatlar smetasiga asosan yil davomida belgilangan xarajatlar doirasida davlat budjetidan moliyalashtirish oyma-oy tarzda amalga oshirilib boriladi.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, budjet tashkilotlarining moliyalashtirish manbalari bo`yicha daromad turlari ikki asosiy guruhga ajratilar ekan. Jumladan, davlat budjeti hisobidan budjet tashkiloti xarajatlarini moliyalashtirish hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg`armalari daromadlari.

Budjet tashkilotlarida ushbu daromadlar turlari hisobini to`g`ri tashkil etish hamda ularni turlarini tashkilot imkoniyatidan kelib chiqib kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Davlat sektori sub`ektlari daromadlarini samarali boshqarishga qaratilgan g`aznachilik xizmatini rivojlantirish va budjetdan tashqari daromadlarini shakllantirish samaradorligini oshirish jarayonlarida budjet majburiyatlari va budjetdan tashqari tushumlarni boshqarish mexanizmini yaxshilash zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi. 26-dekabr 2013-yil.O`RQ-360-son.
2. O`zbekiston Respublikasi moliya vazirining "Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish to`g`risida"gi buyrug`i, 22.12.2010-yilda ro`yxatdan o`tgan, ro`yxat raqami 2169.
3. O`zbekiston Respublikasi moliya vazirining "O`zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (2-sonli BHS) "Yagona schyotlar rejasi"ni tasdiqlash to`g`risida"gi buyrug`i, 20.10.2018-yilda ro`yxatdan o`tgan, ro`yxat raqami 3078.
4. A.A. Ostonokulov. «Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari hisobi va hisoboti metodologiyasini takomillashtirish». Monografiya. – T.: «VNESHINVESTPROM», 2021. – 208 b.
5. D.A.Abdujalilova «Oliy ta`lim muassasalarida o`qitishning to`lov-kontrakt shakli mablag`lari hisobini takomillashtirish» // Monografiya. – T.: «MAKON ZIYO NURI», 2024. – 136 b.

